
ENG AZIZ BAYRAMGA TARADDUD

Ayni kunlarda tumanimizda mustaqilligimizning 31 yilligini munosib kutib olish maqsadida hududlarda keng qamrovli obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Xususan, tumandagi barcha mahalla fuqarolar yig'inlarida bu kabi sa'y-harakatlar yuqori kayfiyatda o'tkazilmoqda. Fuqarolar o'zlari yashab turgan xonadon, ko'cha va mahalla hududini obodonlashtirish, ahil-inoqlik bilan xashar yo'li bilan qabristonlarni tozalash ishlarida faol ishtirok etmoqdalar.

Tumandagi Xonaqa MFYda ham bayramga tayyorgarlik ishlari ko'tarinki ruhda bo'lib o'tmoqda. Shu kunga qadar ko'cha bo'ylariga ekilgan dov-daraxtlarga shakl berish, oqlash, uylarning fasad qismlarini ta'mirlash, so'lim gulzorlar barpo etish ishlari jadal olib borilmoqda. Mahallada bunyodkorlik ishlari ham bajarilmoqda. Hududdagi 4 ta ko'chada 18 km.lik toza ichimlik suvi tarmog'ini tortish ishlari yakuniga yetkazilmoqda. Jami 9 km masofadagi ichki yo'llarda asfaltlashtirish jarayoni boshlash arafasida. "Obod mahalla" dasturi bo'yicha 2 ta qo'shimcha transformator qo'yilib 2 ta suv qudug'i ochilib toza ichimlik suvi chiqarish ishlari olib borilmoqda. Dastur bo'yicha eski elektr simyog'ochlar o'rniga yangi temir-beton simyog'ochlar almashtirilib mahalla ko'chalari to'liq yoritish chiroqlari bilan ta'minlandi.

Bir so'z bilan aytganda bugun mahallalarda kechayotgan ulkan o'zgarishlardan xalqimiz bayramni shukronalik bilan qarshi olmoqdalar.

2022-08-23 15:32:56